

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

KURS ISHI

Mavzu: Byudjet jarayonini samarali tashkil etish yo'llari

Bajardi: MM-75 Quchqarov X..

Tekshirdi: k.o'q. H.Axmedov

TOSHKENT-2014

KIRISH

1.O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayoni, uning asosiy bosqichlari, byudjet jarayonini samarali tashkil etishning zarurligi va vazifalari

2.Byudjet jarayonining tashkiliy-huquqiy asoslari

3. Byudjet tuzilmasi va byudjet tizimi bo'g'inlarining o'ziga xos xususiyatlari

4.Byudjet jarayonini tashkil etishda g'aznachilik faoliyatini takomillashtirish yo'llari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Bugungi kunda byudjet-soliq siyosati borasida olib borilayotgan o'zgarishlarning markazida byudjet daromadlari va xarajatlarining muvofiqligini ta'minlash hamda ularning samaradorligini oshirish masalalarini hal etish taqozo etilayotgan dolzarb masaladir. Zero, iqtisodiyotning erkinlashuvi va islohotlarning chuqurlashuvi jarayonida O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etishning takomillashtirib borishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu yutuqlardan biri Prezidentimiz tomonidan ta'kidlab o'tganidek, xususan «Inqiroz yillarida ko'plab davlatlar o'z iqtisodiyotiga, ayniqsa, moliya-bank sohasini saqlab qolish maqsadida aynan shu sohaga ulkan mablag'larni yo'naltirishga majbur bo'ldi. Bu, o'z navbatida, bir qator davlatlarda, avvalo, rivojlangan mamlakatlarda katta miqdordagi davlat byudjeti taqchilligi va davlat qarzlarini keltirib chiqardi, moliyaviy nomutanosiblikning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi»¹. Darhaqiqat, davlatning o'z vazifa va funktsiyalarini bajarishiga, o'z iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishiga imkon beradigan qurol, dastaklardan biri – davlat byudjetidir.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etish sharoitida byudjet ijrosini yanada oshirish orqali, moliya-byudjet soxasidagi xukuklarini kengaytirish va ularning moliyaviy bazasini mustaxkamlashni talab kiladi.

“O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanib borayotganini 2005-yildan boshlab Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilayotgani ham yaqqol tasdiqlab turibdi.

2013 yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8

¹Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston. 2011. – 48 b.

foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi².

Mamlakatimizda davlat byudjetining profitsit bilan bajarilayotganligi, byudjet jarayonining oqilona tashkil etilganligi davlat byudjeti munosabatlarini samarali tashkil etilayotganligidan, shuningdek xarajatlarni moliyalashtirish tartibi to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi sharoitida O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etishning hozirgi zamon xususiyatlari hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash muammolari va ularni hal qilishga qaratilgan mazkur mavzu bugungi kunda dolzarbligini ko'rsatadi.

1. O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayoni, uning asosiy bosqichlari, byudjet jarayonini samarali tashkil etishning zarurligi va vazifalari

Byudjet jarayoni byudjetni rejalashtirishning asosiy shakli sifatida hokimiyat organlarining davlat byudjeti va unga kiradigan byudjetlarni tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ularning ijrosini nazorat qilish, shuningdek ularning ijrosi haqidagi hisobotlarni tasdiqlash bo'yicha qonun hujjatlari bilan tartibga solingan faoliyatidan iborat.

Byudjet jarayoni – Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish bo'yicha qonunchilik bilan reglamantatsiya qilingan hokimiyat organlarining faoliyati. Yagonalik, mustaqillik va balans metodi byudjet jarayonining printsiplari.

Byudjet jarayoni byudjet faoliyatining 4 bosqichini qamraydi:

² Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. www.uza.uz 2014 yil 18 yanvar.

1. byudjet loyihasini tuzish;
2. byudjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash;
3. byudjetni ijro etish va uning ijrosini nazorat qilish;
4. byudjet ijrosi to'g'risida hisobot tayyorlash va uni tasdiqlash.

Byudjet orqali tartibga solish, ya'ni moliya resurslarini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida qayta taqsimlash byudjet jarayonining tarkibiy qismini tashqil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasini tayyorlaydi va joriy yilning 15 sentyabrigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

Byudjet loyihasida:

- ✓ Davlat byudjeti loyihasi tuzilgan o'rta muddatli asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Hukumati byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari;
- ✓ o'tgan yilgi va joriy yilning birinchi yarim yilida byudjetning bajarilishi bo'yicha hisobot;
- ✓ harakatdagi klassifikatsion tizimga ko'ra keyingi yil uchun daromad va xarajatlar bashorati;
- ✓ Makroiqtisodiy tahlil natijalariga asoslangan keyingi moliya yili uchun tuzilgan byudjet daromadlari va xarajatlari bashoratiga sharh;
- ✓ harakatdagi va tasdiq uchun taqdim etilayotgan byudjet dasturining ro'yxati;
- ✓ joriy investitsiyalar uchun kapital quyilmalarning bashorati;
- ✓ Davlatning tashqi va ichki qarzlarining holati va bular bo'yicha o'tgan moliya yilidagi mablag'lar harakati;

✓ davlat korxonalarining o'tgan va o'tayotgan moliya yilidagi moliyaviy holati, kelgusi moliya yili uchun asosiy moliya ko'rsatkichlarining bashorati;

✓ kelgusi yil uchun davlat byudjeti haqidagi qonunning loyihasi.

✓ kelgusi yil uchun davlat byudjeti haqidagi qonun loyihasida: Tavsiya etilayotgan assignovaniyani moliyalashtirish uchun zarur bo'ladigan, harakatdagi qonunchilikka to'g'ri keladigan daromadlar manbai, turi va hajmi ko'rsatiladi; O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlarida ko'zda tutilgan, kelgusi moliya yilida byudjet mablag'larini oluvchilarga mablag' ajratishni ko'zda tutuvchi assignovaniya; daromad va xarajatlar harakatdagi byudjet tasnifi tizimida ko'zda tutilgan holda kapital va joriy xarajatlarga bo'lingani aks ettiriladi; umumdavlat soliqlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining byudjetiga ajratiladigan ajratmalar me'yori, shuningdek daromadlar hajmi, dotatsiya va subventsiyalar bilan birgalikda va ko'rsatilgan byudjetlarning xarajatlari; davlat byudjeti tarkibiga kiruvchi byudjetlarning aylanma kassa(naqd) hajmi aniqlanadi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti fondining, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun tuziladigan rezerv fondining hajmi ko'rsatiladi; Davlat byudjeti taqchilligining yo'l qo'yish mumkin bo'lgan hajmi va uni moliyalashtirish manbalari ko'rsatiladi; Davlat tomonidan beriladigan kreditlarning, davlatning tashqi va ichki qarzlar chegarasi ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining raisi, yoki uning topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri keyingi moliya yili uchun tuziladigan davlat byudjeti loyihasini tayyorlash jarayonini muvofiqlashtiradi va nazoratini amalga oshiradi. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, yoki uning topshirig'iga ko'ra Moliya Vazirligi birinchi noyabrdan kechikmasdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga keyingi moliya yili uchun byudjet loyihasini taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan davlat byudjet loyihasini ko'rib chiqish:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat byudjeti loyihasiga ilova qilingan byudjet taqchilligini hisobga olgan holda davlat byudjeti loyihasining daromadlari va xarajatlarning har qanday moddasini qaytadan ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan xarajatlar moddasining oshirilishi boshqa xarajat moddalarining mos ravishda qisqarishini ko'zda tutishi, yoki daromadlarining ortishiga asoslangan bo'lishi kerak. Xuddi shunday daromad moddalarining qisqarishi boshqa daromad moddalarining ortishini, yoki ma'lum xarajatlarning qisqarishini ko'zda tutishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat byudjeti qonuni tasdiqlangandan so'ng uch kunlik muddat ichida Qoraqalpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashiga, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlariga ularning daromad va xarajatlari, shuningdek ularga respublika byudjeti tomonidan ajratiladigan byudjet dotatsiya va subventsiyalarining hajmi to'g'risida ma'lumotni beradi. Shundan so'ng Qoraqalpog'iston Respublikasining Jokari Kengesi va Toshkent shahri, viloyatlar halq deputatlari kengashi ikki haftalik muddatda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti doirasida o'z byudjetlarini tasdiqlaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jokargi Kengesi va Toshkent shahri, viloyatlar halq deputatlari uch kunlik muddat ichida shahar va tumanlar hokimiyatlar ular byudjetining daromad va xarajatlari, shuningdek yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan dotatsiya va subventsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotni etkazadi.

Tasdiqlangan daromad va xarajatlarning hajmi bo'yicha ma'lumot berish. Davlat byudjeti haqidagi qonun qabul qilingandan keyin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bir haftalik muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi va Bojhona Qo'mitasini tasdiqlangan daromadlar hajmi bo'yicha ma'lumot beradi. 10 kunlik muddat ichida Moliya vazirligi Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarni belgilangan daromad va xarajatlar hajmi bo'yicha ma'lumotni beradi. Mahalliy darajadagi

korxona va tashkilotlarga byudjet daromad va xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotni berish xuddi shu tarzda bir haftalik muddat ichida amalga oshiriladi.

Davlat byudjetidan xarajat qilishning asosiy qoidalari. Davlat byudjeti xarajatlari byudjet mablag'larini oluvchilar tomonidan davlat byudjeti to'g'risidagi qonunda aniqlangan smeta xarajatlari va yo'naltirilish sertifikatlariga asosan byudjet assignovaniyasi chegarasida amalga oshiriladi.

Xo'jalik shartnomalari bo'yicha xarajat qilinmagan byudjet mablag'lari keyingi moliya yilida byudjet assignavaniyasi hisobidan to'lanadi.

Respublika byudjet tashkilotlari schyotida qolgan byudjet mablag'lari moliya yilining oxirgi ish kunida Respublika byudjet schyotiga o'tkaziladi. Mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan korxonalar uchun ham shu tartib amal qilinadi. Barcha darajadagi byudjetlarning schyotlarida qolgan byudjet mablag'lari kassa aylanmasini shakllantirish uchun yo'naltiriladi.

Tasdiqlangan kassa aylanmasidan qolgan qoldiq mablag' hukumat organlarining qaroriga ko'ra boshqa yo'nalishlarga xarajat qilinishi mumkin. Davlat byudjetini kassa bajarilishini nazorat qilish Oliy majlis tomonidan vakolatlangan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan amalga oshiriladi, chunki davlat byudjetini daromad va xarajatlari bo'yicha o'tkazmalar markaziy bank qoshida ochilgan hisob-kitob schyotidan amalga oshiriladi.

Moliya vazirligi har chorakda Vazirlar Mahkamasiga davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi. Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, assotsiatsiyalar, Qoraqalpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashi, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining davlat byudjeti bajarilishi to'g'risidagi har choraklik hisobotini tinglaydi.

Mansabdor shaxslar moliya vazirligi va uning joylardagi organlariga taftish va tekshiruvlar o'tkazishda yordam berishga majburdirlar. Harakati tekshirilayotgan shaxslar kerakli ma'lumotlarni yozma yoki elektorn shaklda taqdim etishga majburdir.

Har yili 1 aprelgacha Moliya vazirligi Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlisga o'tgan moliya yilidagi o'zining taftish faoliyati natijalari bo'yicha hisobot beradi.

Davlat byudjeti Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning ijrosi yuzasidan hisobot:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya organlari o'tgan moliyaviy yil bo'yicha har yili 20 fevraldan kechikmasdan hisobotlarni o'zlarining quyi organlaridan qabul qiladi va bir vaqtning o'zida Moliya vazirligiga hisobotlar nushasini taqdim etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimiyatlari mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasining Jokargo' Kengesi va mahalliy halq organlarga 25 fevralgacha ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun hisobotlar taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobot yilidan keyingi yilning birinchi mayigacha hisobot tuzadi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bu hisobotni ko'rib chiqib tasdiqlagandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga taqdim etiladi. Davlat byudjetining bajarilishi to'g'risidagi hisobot Oliy Majlis qarori bilan tasdiqlanadi va bir oylik muddat ichida matbuotda e'lon qilinadi.

Hozirgi kunda respublikamiz byudjet tizimida g'aznachilik tizimini tatbiq etish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda. Albatta, g'aznachilik faoliyatini iqtisodiyotga tatbiq etish moliya tizimining barcha jabhalarida o'ziga xos o'zgarishlarni taqozo etadi. Bu asosan, huquqiy-me'yoriy hujjatlar holati, tashqiliy-uslubiy va axborot texnologiyalari jarayonlarini qamrab olmog'i kerak.

1.2 Byudjet jarayonining tashkiliy-huquqiy asoslari

Byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashqil etish va tuzish tamoyillarini, byudjet

jarayonida ular o'rtasida, shuningdek byudjetlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni ifoda etadi.

Byudjet tuzilishi asoslari mamlakatning davlat tuzumi, mamlakatda amalda bo'lgan asosiy qonun hujjatlari, byudjetning ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlardagi roli bilan belgilanadi. Shuningdek, byudjet tizimi tuzilishi mamlakatning davlat va ma'muriy tuzilishi shakliga bog'liq. Hokimiyatning markaz va ma'muriy-hududiy birliklar o'rtasida taqsimlanishi darajasiga ko'ra, barcha davlatlar unitar, federativ va konfederativ davlatlarga bo'linadilar. O'zbekiston Respublikasi unitar davlatdir.

mahalliy byudjetlar tartibiga kiruvchi byudjetlar quyidagi byudjetlarni o'z ichiga oladi:

- Qoraqolpog'iston Respublikasi byudjeti – Qoraqolpog'iston Respublikasining respublika byudjetini hamda respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetini;

- viloyat byudjeti – umumviloyat byudjetini hamda viloyatga buysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetini;

- tumanlarga bo'linadigan shahar byudjeti – umumshahar byudjetini hamda shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlarini;

- tarkibida shaharlari bo'lgan tuman byudjeti – umumtuman byudjetini hamda tuman bo'ysunuvidagi shaharlar byudjetlarini.

1996 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimiga byudjetdan tashqari davlat maqsadli fondlar kiritilgan.

Byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablaglari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashqil etishni va tuzish tamoyillarini, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek byudjetlar hamda byudjet mablaglari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

Byudjet tizimi tuzilishining asosiy tamoyillari qonunlashtirilgan va ular:

- ✓ byudjet tasnifi tizimi, hisob-byudjet hujjatlari va byudjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;

✓ byudjet tuzilishining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;

✓ turli darajadagi byudjetlarning o'zaro bog'liqligi;

✓ Davlat byudjetining balansiligi;

✓ Davlat daromadlarini aniq manbalar bo'yicha va xarajatlarini yo'nalishlari (moddalari) bo'yicha rejalashtirish;

✓ Davlat byudjeti xarajatlarini byudjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag' doirasida sarflash;

✓ barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi.

Birinchisi, 1991-2000 yillarni o'z ichiga oladigan davr. Ushbu davrda byudjet jarayoni iqtisodiy ravishda iqtisodiy dastaklar yordamida boshqarildi. Byudjet ijrosi asosan «Korxonalarni soliqqa tortish to'g'risida», «Aholini o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunlar, Vazirlar Mahkamasining, Moliya Vazirligining va bir qancha davlat boshqaruvi organlarining qarorlari, Yo'riqnomalari, Nizomlariga asosan ijro etildi.

Byudjet amaliyotining huquqiy asoslari yaratilgach, jahon andozalari talablari asosida byudjet jarayonini tashqil etish va boshqarish imkoniyatlari yaratildi.

Davlat byudjet siyosatining vazifalarini amalga oshirishda byudjet amaliyotida shakllanib borayotgan tendentsiyalar, qonuniyatlar qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatish lozim:

✓ davlat moliyasini boshqarish va davlatning moliyaviy resurs imkoniyatlari tarkibida davlat byudjeti mablag'larining ahamiyati oshishi;

✓ mahalliy byudjetlar majburiyatlarining ortishi, ular zimmasidagi byudjet xarajatlari yuklamining o'sishi;

✓ mahalliy byudjetlar majburiyatlarining o'sishi natijasida ular huquqlari va moliyaviy imkoniyatlarini oshirish muammosining keskinlashuvi;

✓ byudjet bo'g'inlariaro munosabatlarni muvofiqlashtirishning zamonaviy usullari, shakllari hamda tamoyillari amal qilinishini ta'minlash ahamiyati ortishi.

Byudjet tizimi taraqqiyotidagi ushbu qonuniyatlar byudjet tizimi bo'g'inlari oldiga muhim vazifalarni qo'yadi. Hududlar iqtisodiy salohiyati, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari mustaqilligi va mas'uliyatlarining ortishi hamda shu bilan bevosita manfaatdor bo'lgan tegishli byudjet bo'g'inining samarali faoliyati, uning huquq va majburiyatlari to'liq bajarilishini kafolatlaydi.

byudjet bo'g'ini uchun rioya qilinishi lozim bo'lgan quyidagi asosiy tamoyillarni belgilaydi:

- byudjetning yagona tasnifi;
- byudjet tuzilishi va O'zbekiston Respublikasi ma'muriy byudjetlarining o'zaro bog'liqligi;
- turli darajadagi byudjetlarning o'zaro bog'liqligi;
- barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi.

Byudjet tizimining tarkibiy tuzilishi va boshqaruvining asosiy, davlat byudjeti tarkibi va tuzilishi tamoyillari, uni tuzish va ijro etish tartibi, daromadlarni shakllantirish va xarajatlarni amalga oshirish tamoyillari, turli darajadagi byudjetlararo munosabatlar mexanizmi, byudjet mablag'lari bo'yicha operatsiyalar ustidan hisobot va nazorat tartibi belgilab berilgan.

Byudjet jarayonining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- muvozanatlangan bozorga kirib borish yo'lida muqim taraqqiyotga erishish maqsadlarida iloji boricha ko'proq moddiy va moliyaviy zahiralarini izlab topish;
- byudjet daromadlarini alohida soliqlar va boshqa to'lovlar, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning prognozlari va maqsadli dasturlariga muvofiq holda umumiy hajmi bo'yicha belgilash;
- byudjet xarajatlarini mo'ljallangan vazifalar bo'yicha, shuningdek, byudjetni umumiy hajmini nazarda tutilgan umumdavlat ahamiyatiga molik jami tadbirlarni uzluksiz moliyalashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilash;

- byudjetni iqtisodiyotdagi inflyatsiya tendentsiyalarini bartaraf etish va milliy pul tizimni barqarorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan umumiy moliyaviy barqarorlashtirish dasturi bilan muvofiqlashtirish;

- iqtisodiy maqbul manbalar hisobidan byudjet taqchilligini qisqartirish va tugatish;

- turli darajadagi byudjetlarning balanslanishini ta'minlash maqsadlarida davlat daromadlari manbalarini shu byudjetlar o'rtasida, shuningdek xo'jalik sohalari va iqtisodiy mintaqalar o'rtasida qayta taqsimlash yo'li bilan byudjet boshqaruvini amalga oshirish;

- barcha yirik miqyosli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning mutanosibligi va balanslanganligini ta'minlash maqsadlarida istiqbolga mo'ljallangan byudjetni rejalashtirish prognozlash rolini oshirish;

- yuridik shaxslar va ayrim fuqorolarning o'z soliq majburiyatlarini bajarishlarida ularning moliyaviy faoliyatini va daromadlari ustidan nazoratni kuchaytirish;

- elektron hisoblash texnikasidan keng foydalangan holda moliyaviy hisob-kitoblarni avtomatlashtirish tizimi orqali byudjetlarni tuzish va uning ijrosi jarayonlarini avtomatlashtirish.

Byudjet jarayonini tashkil qilishning asosiy printsiplari:

- 1) Yagonalik – yagona huquqiy baza, yagona byudjet tasnifi, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va xududlar byudjetlarini tuzishda statistik axborot tuzish uchun zarur bo'lgan byudjet hujjatlari shaklining yagonaligi, pul tizimining yagonaligi.

- 2) har bir qonun chiqaruvchi va ijro xokimiyat organi byudjet jarayonining mustaqilligi o'z daromad manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlarini belgilash huquqi bilan ta'minlanadi;

- 3) Balans usuli – jami byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasida, shuningdek natural va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasida to'g'ri nisbatlarni belgilashdir.

Bu byudjet barqarorligini ta'minlashi hamda mablag'larni xo'jalik sohalari, iqtisodiy mintaqalar o'rtasida taqsimlashda zarur proportsiyalarni yaratishi lozim. Uning muhim sharti – byudjet xarajatlarining daromadlarga mos bo'lishi, moliyaviy zahiralar tashkil qilishdan iborat. Bu printsipti butun moliyaviy siyosatning asosiy maqsadi hisoblanadi.

4) davlat byudjetini tashkil qiluvchi byudjetlarning o'zaro bog'liqligi.

5) Davlat daromadlarini aniq manbalar bo'yicha va xarajatlarini yo'nalishlar (moddalar) bo'yicha rejalashtirish, davlat byudjeti xarajatlarini Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun bilan belgilangan mablag'lar doirasida sarflashni amalga oshirish.

Byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish) byudjet jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda quyidagi masalalar echiladi yoki ularga aniqlik kiritiladi:

- byudjetning hajmi;
- navbatdagi (kelgusi) yil uchun soliq va pul-kredit siyosati;
- byudjet mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari va byudjet defitsitini qoplash metodlari;
- byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromadlarni taqsimlash.

Davlat byudjetining loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish) bo'yicha ishlar yangi byudjet yilining boshlanishidan ancha oldin, masalan, GFRda – 6 oy, Yaponiyada – 8 oy, Frantsiyada – 14 oy, AQShda – 18 oy, O'zbekistonda – 7 oy oldin boshlanadi. Uning loyihasini tuzish ijroiya hokimiyat organlari, odatda, Moliya vazirligi (G'aznachilik) tomonidan amalga oshiriladi.

Ba'zi bir mamlakatlarda byudjet loyihasini tuzish davlat ijroiya hokimiyati boshlig'i (rahbari)ning kelgusi yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning umumiy yo'nalishlari muammolari bo'yicha chiqishidan (ma'ruzasidan) boshlanadi. Masalan, AQShda prezident amerika xalqiga Byudjetnoma bilan murojaat qilib, unda moliya-pul siyosatining siyosatining asosiy vazifalari, kelgusi byudjet yili va navbatdagi to'rt yil uchun federal byudjet daromad va xarajatlarining hukumat bahosi shakllantiriladi.

Byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish)da quyidagi maqsadlar kun tartibiga qo'yiladi:

- iqtisodiyotning samaradorligini oshirishda byudjetning faol ta'sirchanligini ta'minlash;

- moliyaviy va boshqa resurslarning hukumat iqtisodiy va sotsial dastur-bashoratlari bilan muvofiqligiga erishish;

- mablag'larni sarflashda zaruriy proporsiya va ustuvorliklarni o'rnatish;

- byudjet defitsitini qoplash uchun manbalarni qidirib topish.

Byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish)dan oldin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga:

- tegishli byudjetlar va davlat maqsadli fondlarini tayyorlash uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Tashkent shahri hokimliklari, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlarga;

- byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga buyurtmalar tuzish uchun – respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilarga byudjet so'rovi yuborishi kerak.

O'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Tashkent shahri hokimliklari, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlar byudjet so'rovi olinganidan keyin uch kunlik muddat ichida tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish (ishlab chiqish, yaratish), ushbu loyihalarni tayyorlash tartibini va muddatlarini belgilash yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilmog'i zarur.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya boshqarmalari yuqorida ko'rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan so'ng uch kun muddat ichida:

- tegishli byudjetlar loyihalarini tayyorlashi uchun – tuman va shahar hokimliklariga;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan byudjet mablag'lari olishga buyurtmalar tuzish uchun - Qoraqalpog'iston

Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilarga byudjet so'rovlari yuborishi kerak.

Byudjet loyihasini tayyorlash muddatlari har bir mamlakatning amaldagi qonunchiligida o'z aksini topadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining byudjet loyihasini tayyorlashning quyidagi muddatlarini belgilaydi:

a) kelgusi moliya yiliga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar olishga buyurtmalar:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan – joriy yilning 1 iyunidan kechikmay tegishli moliya organlariga;

- respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan – joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilishi kerak.

b) kelgusi moliya yiliga tegishli byudjetlar loyihalari:

- tumanlar va shaharlar hokimliklari moliya organlari tomonidan – mahalliy hokimiyat vakillik organlari belgilagan tartibda va muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmasdan yuqori moliya organlariga;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlar tomonidan – O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda, biroq joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilmog'i lozim.

Kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat byudjetining loyihasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tayyorlab, joriy yilning 15 sentyabrigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti loyihasini byudjet mablag'lari oluvchilar taqdim etgan buyurtmalarga va davlat byudjetining tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar loyihalariga muvofiq tayyorlaydi.

Kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasi o'z ichiga quyidagilarni olmog'i lozim:

- byudjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladigan Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari;

- umumdavlat soliqlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlariga ajratmalar normativlari, shuningdek mazkur byudjetlarning daromadlari, shu jumladan byudjet dotatsiyalari va byudjet subventsiyalari hamda xarajatlari miqdori;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlarining aylanma kassa me'yori miqdorlari;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zahira fondining, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlari zahira fondlarining nazarda tutilmagan xarajatlarni qoplashga tegishli byudjet mablag'lari yo'naltirilishi mumkin bo'lgan doiradagi miqdori;

- Davlat byudjeti defitsitining eng yuqori miqdori va uni moliyalashtirish manbalari;

- davlat ichki va tashqi qarzlarining, davlat tomonidan beriladigan kreditlar hamda kafolatli fondning eng yuqori miqdorlari.

Bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, shuningdek tegishli tashkilotlar bilan birgalikda quyidagilarni o'z ichiga olgan byudjetnoma loyihasini ishlab chiqishi va 15 sentyabrgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritishi kerak:

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining bashorat bahosi;

- o'tgan yilgi Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot va joriy yilgi Davlat byudjetining kutilayotgan ijrosi bahosi;

- kelgusi yilga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasini tuzishda asos bo'lgan kelgusi yilning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari;

- mamlakat byudjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlariga sharhlar;

- davlat ichki va tashqi qarzlar hamda ular bo'yicha xarajatlar holati to'g'risidagi ma'lumotlar;

- kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasi.

Yuqoridagilarni o'z ichiga olgan byudjetnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirilmasdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritilmog'i lozim.

Byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish)da

- mamlakatning istiqboldagi iqtisodiy rivojlanishi;

- inflyatsiya darajasi;

- aholining bandlik darajasi;

- sotsial qo'llab-quvvatlashdan foydalanayotgan aholi soni hisobga olinadi.

Shuningdek, byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish)da quyidagi turli metodlardan foydalaniladi:

- iqtisodiy tahlil metodi – bu metoddan foydalangan holda o'tgan yilgi byudjetning bajarilish darajasi aniqlanadi va joriy yil uchun byudjetning bajarilish darajasi o'rnatiladi, farqlanish sabablari aniqlanadi;

- normativ metod - bu metodning asosida davlat tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning birligiga to'g'ri keluvchi moliyaviy xarajatlarning normativi yotadi. Natural birlikni normativga ko'paytirib har bir Bosh taqsimlovchi, taqsimlovchi va byudjet tashkiloti bo'yicha mablag' xarajatlarning summasi aniqlanadi.

- ekstrapolyatsiya metodi - unga ko'ra oldingi yillarning hisobot ma'lumotlari dinamikasi asosida moliyaviy ko'rsatkichlar aniqlanadi va ular kelgusi yil uchun ekstrapolyatsiya qilinadi.

3. Byudjet tuzilmasi va byudjet tizimi bo'g'inlarining o'ziga xos xususiyatlari

Davlat byudjetini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar majmuiga (uning ichki bo'linmalari tarkibi va tuzilmasi, ulardan foydalanish sohalarining funktsional cheklanganligi, o'zaro bo'ysunuvchanligi, o'zaro aloqadorligi va ta'sirchanligi hamda huquqiy tomonlarini inobatga olgan holda) byudjet tuzilmasi deyiladi. Har bir mamlakatning byudjet tuzilmasi uning milliydavlat yoki ma'muriy-hududiy tuzilishi bilan belgilanadi.

Byudjet tuzilishi davlat byudjeti va mamlakat byudjet tizimining tashkil etilishini, uning alohida bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, byudjet tizimiga kiruvchi byudjetlarning faoliyat yuritishi, huquqiy asoslarini, byudjetlarning tarkibi va tuzilishini, byudjet mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartib-tamoyillari va hokazolarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti:

- Respublika byudjetini;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti tarkibida davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi.

O'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetini hamda shu respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o'z ichiga oladi.

Viloyatlar byudjeti esa viloyat byudjetidan, viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlaridan iboratdir.

Quyida keltirilayotgan 1-rasmda O'zbekiston Respublikasining byudjet tuzilishini ko'rishimiz mumkin.

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti respublika byudjetini va Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, tumanlarga bo'linadigan shaharlarning byudjeti shahar byudjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlarini o'z ichiga

oladi. Tumanga bo'ysunadigan shaharlari bo'lgan tumanning byudjeti tuman byudjetidan va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar byudjetlaridan tarkib topadi.

Respublika byudjeti davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatiga mo'lik tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining byudjeti - davlat byudjetining Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.


Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetini hamda respublikaga (Qoraqalpog'istonga) bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetlarini o'z ichiga oladi.

Mahalliy byudjet - davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Viloyat byudjeti viloyat byudjetini, viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlarning byudjetlarini o'z ichiga oladi.

Tumanlarga bo'linadigan shaharning byudjeti shahar byudjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining jamlanma byudjeti tuzilmasi³



³ Iqtisodiy adabiyotlar asosida mustaqil tuzildi

Tumanga bo'ysunadigan shaharlari bo'lgan tumanning byudjeti tuman byudjetini va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar byudjetlarini o'z ichiga oladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari - davlat byudjeti tarkibida jamlanadigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushish me'yorlari va shartlari, shuningdek, bu mablag'lardan qay maqsadlarda foydalanilishi mumkinligi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekistonning byudjet tuzilishi modeli markazlashtirilgan bo'lib, byudjet tizimi ikki darajaga ega. Birinchi darajaga O'zbekiston Respublikasirespublika byudjeti, ikkinchisiga esa - Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar kiradi.

Bunda respublika byudjeti byudjet tizimining asosiy darajasi hisoblanadi, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning yig'indisi O'zbekiston byudjet tizimining ikkinchi darajasini tashkil etadi.

Respublika byudjeti daromadlar quyidagilardan tashkil topadi⁴:

1) qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi va normativlar asosidagi umumdavlat soliqlari, yig'implari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;

2) qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;

3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar;

6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

Respublika byudjeti xarajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablag' ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi⁵:

⁴ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi.- T.: "Norma", 2013 y.- 96 b.

1) respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'i oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;

2) joriy byudjet transfertlari shaklida;

3) kapital xarajatlar shaklida:

- asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;

- chet elda davlat ehtiyojlari uchun er va boshqa mol-mulk olishga;

- davlat ehtiyojlari uchun erga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;

- davlat zaxiralarini vujudga keltirishga;

4) kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan byudjet transfertlari shaklida;

5) Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarga byudjet dotatsiyalari, byudjet subventsiyalari va byudjet ssudalari shaklida;

6) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan byudjet ssudalari shaklida;

7) davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari shaklida;

8) davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida;

9) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

Respublika byudjeti taqchilligi davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag'larni jalb qilish, respublika byudjeti mablag'larining moliya yili boshlanishidagi qoldiqlari va qonunlarga muvofiq boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi⁶:

⁵ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi.- T.: "Norma", 2013 y.- 96 b.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi.- T.: "Norma", 2013 y.- 96 b.

1) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;

2) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig'imlari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;

3) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki ob'ektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

4) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

5) yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet dotatsiyalari, byudjet subventsiyalari va byudjet ssudalari;

6) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

7) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.


Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablag'lar ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

1) Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining joriy xarajatlari shaklida;

2) joriy byudjet transfertlari shaklida;

3) kapital xarajatlar shaklida;

Respublika byudjetidan xarajatlarni moliyalashtirishyo'nalishlari⁷



1) fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha);

⁷ Iqtisodiy adabiyotlar asosida mustaqil tuzildi

- 2) ijtimoiy ta'minot;
- 3) aholini ijtimoiy himoya qilish;
- 4) Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash;
- 5) iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjet tashkilotlarini saqlash;
- 6) qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;
- 7) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

O'zbekiston Respublikasi byudjeti o'zining xususiyatlariga ega, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti hamda mahalliy byudjetlar balansli daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi kerak. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.

4. Byudjet jarayonini tashkil etishda g'aznachilik faoliyatini takomillashtirish yo'llari

Davlat moliya tizimida o'tkazilayotgan islohotlar davlat xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Shu sababli, davlat byudjetini ijro etishning g'aznachilik tizimini joriy etilishi muhim ahamiyatga egadir.

G'aznachilik–davlat byudjetining ijrosini ta'minlashning bir shakli bo'lib, unda maxsus idora davlat soliqlarini yig'imini va ulardan foydalanishni ta'minlaydi, mablag'lar ustidan davlat nazorati amalga oshiriladi, shuningdek, davlat tashqi va ichki qarzlarini boshqaradi hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari pul oqimlarini monitoringini olib boradi.

Bugungi kunga kelib, MDH davlatlarini barchasida ushbu tizimni joriy qilindi va ayni paytda ular mavjud tizimni takomillashtirish ishlari bilan band. Mana shu nuqtai-nazardan qarasak, bizning respublikamizdagi g'aznachilik tizimi mukammalroq bo'lishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Sababi ular yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni biz chetlab o'tishimiz va ular tajribasiga tanqidiy yondashishimiz mumkin.

Markaziy g'aznachilikning tashkil qilishdan maqsad – O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijrosi jarayonida mablag'lar samarali boshqarish, davlat buyurtmalarini va dasturlarini moliyalashtirishda tezkorlikni oshirish, byudjet daromadlari tushumini va davlat mablag'laridan maqsadli sarflanishini nazorat qilishda tezkorlikni ta'minlashdir.

Byudjet mablag'laridan samarali foydalanish degani bu – byudjet mablag'lari, byudjet tizimining har bir bo'g'inida amaldagi qonunchilikka muvofiq qanday maqsadga mo'ljallangan bo'lsa, o'sha maqsadni amalga oshirish uchun o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirilishi, aniq sarflanishi lozimdir

1-jadval

G'aznachilik tizimining tuzilmasi uch pog'onali⁸

Birinchi pog'ona	Respublika bo'yicha Markaziy g'aznachilik G'aznachilik hisobvaraqlaridagi mablag'lar harakatini boshqaradi va davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning jamlanma hisobini yuritadi. Qonun bilan belgilangan tashkilotlarga byudjet ijrosi to'g'risida tegishli ma'lumotnomalar beradi. Quyi g'aznachilik idoralari ishini boshqaradi, ulardan byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risida ma'lumot va hisobotlarni qabul qiladi va quyi organlar tomonidan byudjetning ijrosini qonunchilikka binoan ta'minlaydi.
Ikkinchi pog'ona	viloyat g'aznachilik boshqarmalari, mahalliy byudjetning daromad qismining shakllantirilishi va xarajatlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Viloyat byudjeti mablag'larining harakatini boshqaradi. Mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari hisobini yuritadi, quyi g'aznachilik organlari va byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlar faoliyatini nazorat qiladi.
Uchinchi pog'ona	shaharlarda, tumanlarda va shaharlardagi tumanlarda g'aznachilik bo'linmalari, hududda byudjetning daromad qismining shakllantirilishi va byudjet muassasalar bo'yicha xarajatlarning maqsadli moliyalashtirilishini

⁸ Talaba tomonidan aks ettirildi.

	ta'minlaydilar. G'aznachilik hisobvaraqlarida mablag'lar harakati hisobini yuritadilar va hududda daromadlar va xarajatlar bo'yicha byudjet ijrosi to'g'risida yuqori g'aznachilik organlariga axborot beradilar.
--	---

Moliya-byudjet nazoratining asosiy ob'ekti davlat byudjeti va byudjetdan tashkari jamg'armalar mablag'laridan maqsadli, tejamkorlik rejimiga amal qilingan holda, oqilona foydalanilganligi, amaldagi qonun-qoidalarga rioya qilinganligini nazorat qilishdan iboratdir.

Dastlabki nazorat xarajatlar rejasini tuzish vaqtida o'tkaziladi. Byudjet tashkilotlarining majburiyatlar hisobini yuritish bosqichida amalga oshiriladi va byudjetdan mablag' oluvchilarning ko'zda tutilmagan xarajatlar bo'yicha byudjet majburiyatlari olinishiga qarshilik ko'rsatiladi. Dastlabki nazorat-taxminlashtirish, rejalashtirish va loyihalashtirish bosqichida, moliyaviy operatsiyalar amalga oshirishlashidan avval o'tkaziladi, oqilona boshqaruv echimlari qabul qilinishiga xizmat qiladi, uning maqsadi noqonuniy operatsiyalar, samarasiz xarajatlarning oldini olishdir.

Joriy nazorat moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganidan keyin o'tkaziladi, tekshirilayotgan xujjatlarni va muassasaning moliyaviy faoliyati o'rganiladi Joriy nazorat ham moliyalashtirish bosqichida amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlari byudjetni ijro qiluvchi organga majburiyatlarni qabul qilinganlik holatini tasdiqlaydigan xujjatlarni tekshiruv uchun taqdim qiladi. Bundan tashqari, aniq xarajatlarni to'loviga xujjat tayyorlash qoidasiga javob berilishi mavjud talablariga rioya qilinishi kerak. Shu bosqichda byudjet tashkilotlarining ko'zda tutilmagan xarajatlarga qarshilik ko'rsatiladi.

Yakuniy nazorat o'tkazilishida byudjet majburiyatlarini qabul qilishdagi tovarlar va xizmatlarning real qiymatiga tovarlar va xizmatlar uchun to'langan summaga muvofiqligi belgilanadi. Yakuniy nazorat byudjet loyihasini tuzish va ko'rib chiqish uchun javobgar moliya va nazorat organlari, davlat boshqaruv organlari, shuningdek, Hisob Palatasi tomonidan nazorat amalga oshirilishi mumkin. Davlat byudjetidan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobraqamlaridan xarajatlarni moliyalashtirish paytida g'aznachilik organlari tomonidan dastlabki va

joriy nazoratni amalga oshirishda barcha byudjet tashkilotlari va muassasalar qamrab olinishi ko'zda tutilmoqda. Har kuni bank G'aznachilik organiga ma'lumot taqdim etadi, o'z navbatida g'aznachilik organi har bir hisob bo'yicha byudjet oluvchiga ma'lumot beradi, to'lov xarajatlarining nusxalarini rasmiylashtiradi, bu xujjat xarajat etilganligi to'g'risida dalolat beradi. Muhimi shundaki, g'aznachilik tizimining faoliyati nafaqat davlat moliyaviy resurslarni safarbar qilish orqali davlat xarajatlarini muntazam samarali boshqarish imkoniyatinigina yaratibgina qolmay, ular ustidan samarali nazorat qilish imkonini ham beradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda dasturlarni moliyaviy ta'minlash va davlat mablag'lari foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish ishida g'aznachiliksiz muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. G'aznachilikni joriy etish davlat mablag'larini boshqarish tizimining samadorligini oshirishga ko'maklashadi. G'aznachilik tizimida qilinayotgan xarajatlarni eng yuqori darajadagi «tiniqligi»ga erishiladi. G'aznachilik organlarining asosiy vazifalaridan biri byudjet mablag'larini maqsadli va samarali ishlatilishini nazorat qilish hisoblanadi. O'zbekistonda yaratilayotgan markazlashtirilgan G'aznachilik tizimi g'aznachilikning yagona hisobraqamida naqd pullarni markazlashtirishni, shuningdek, byudjet ijrosining nazoratini va hisob-kitobini ko'zda tutadi. G'aznachilik tizimida byudjetni ijro qilish jarayoni detallashtirilgan, u quyidagi ko'rsatkichlarni aniq nazorat qilish imkonini beradi:

- barcha byudjet mablag'larining miqdori;
- byudjetdan moliyalashtirishning kafolatlangan limiti;
- byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan haqiqiy tuzilgan shartnomalarning hajmi;
- tuzilgan shartnomalar asosida berilgan avans to'lovlarning hajmi;
- tovar-moddiy boyliklar va bajarilgan ishlar hajmi qabul qilinganligi tasdiqlangandan keyin, shuningdek taqdim qilingan schyot-fakturalarning to'g'riligini tekshirilganidan so'ng to'lanadigan ish haqi va boshqa turdagi pul mablag'lari summasi;
- to'lovga taqdim etilgan hisobraqamlardagi mablag'lar miqdori;

- byudjet mablag'lari hisobraqamidan haqiqiy ko'chirilgan mablag'lar miqdori.

2005 yil may oyida qabul qilingan 1475- sonli "Byudjetdan mablag' oluvchilarning tovar (ish va xizmatlar) etkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalarini ro'yxatga olish va ular xarajatlari to'lovini nazorat qilish to'g'risida"gi vaqtinchalik Nizom Moliya vazirligi xamda xududiy moliya organlarida byudjetdan mablag' oluvchilar bilan tovar(ishlar,xizmatlar) etkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va byudjet mablag'larini xarajatlar guruxlari bo'yicha byudjetdan mablag' oluvchilar xarajatlarini to'lashga o'tkazish ustidan nazorat qilish tartibini belgilaydi. Ushbu Nizomda belgilanganidek, byudjet mablag'lari oluvchilarning iqtisodiy tasnif bo'yicha IV – guruh xarajatlari g'aznachilik orqali nazorat etib boriladi

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, G'aznachilik organi faoliyatining uzluksiz qismi-bu nazoratdir deb aytish mumkin. G'aznachilik organlari byudjet oluvchilar tomonidan davlat byudjetining mablag'larini maqsadli ishlatilishi ustidan doimiy nazorat olib boradi. Bunda byudjet ijrosida g'aznachilik tizimining maxsusligi ko'rinadi. Davlat byudjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobraqamlaridan xarajatlarni moliyalashtirish paytida g'aznachilik organlari tomonidan dastlabki va joriy nazoratni amalga oshirishda barcha byudjet tashkilotlari va muassasalar qamrab olinishi ko'zda tutilmoqda. Davlat byudjeti mablag'larini maqsadli ishlatilishining yakuniy nazorati G'aznachilikning mintaqaviy organlari tomonidan Moliya Vazirligi iqtisodiy va nazorat ishlarining asosiy masalalari Rejasiga muvofiq, boshqa tashkilotlar bilan birgalikda amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda.

Nazorat-tekshiruv boshqarmasi tekshirish natijalariga ko'ra materiallarni G'aznachilik boshqarmasiga Davlat byudjeti daromadlarini to'ldirish uchun, shtraf sanksiyalari qo'llash uchun maqsadli ishlatilmagan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlarni yo'naltiradi. G'aznachilik organlari taqdim qilingan materiallarni ko'rib chiqib, shtraf sanksiyalari qo'llanilgandan keyin byudjetdan mablag' oluvchilarga joriy yilning moliyalashtirish rejasi shu miqdorda kamaytirilganligi

to'g'risida ma'lumot yuboradi. G'aznachilik organlari tekshiruv natijalarini to'liq amalga oshirish va mas'ul rahbar xodimlarni, shuningdek, qonunni buzgan shaxslarni jazolash maqsadida byudjet mablag'larini noqonuniy ishlatish holatlari bo'yicha sud, prokratura organlariga axborot beradi.

XULOSA

Byudjet jarayoni bosqichlari va uni tashkil etishni takomillashtirishga qaratilgan mazkur mavzu yuzasidan quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

1. Jamiyatni demokratiyalashuvi jaraenining chukurlashib borishi maxalalliy xokimiyat boshkaruv organlarining joylardagi ijtimoiy va iktisodiy maslalarini hal kilish borasidagi xuquq va majburiyatlarining oshib borishiga olib keladi. Bu ob'ektiv jaraen bo'lib, asosan, ikki omil bilan izohlanadi:

a) Maxalliy boshkaruv organlari joylardagi muammolarni moxiyatini chukur anglab etadilar.

b) Maxalliy boshkaruv organlarining xukuk va majburiyatlarini oshirilishi ularga biriktirilgan ma'muriy xududlardagi muammolarni tez va sifatli xal kilish imkonini beradi.

2. Respublikamizda keng kulamda amalga oshirilaetgan islooxotlarning birinchi boskichida orttirilgan tajriba asosida inson va oila xaetining barcha soxalarini ta'minlashga karatilgan va bir birini tuldiruvchi chora-tadbirlarinng butun bir tizimi shakillandi.

Ushbu jaraenda shakillangan yunalishlar doirasida ijtimoiy kullab kuvvatlash shakillari va vositalarini takomillashtirish jaraeni tinimsiz davom etmokda.

3. Byudjet nazoratida byudjet mablag'larini xarajat moddalari buyicha sarflanishini nazorat kilinishiga katta e'tibor beriladi. Buning asosiy sababi shundaki, byudjetning kassa ijrosi jaraenida ayrim xaraja moddalir buyicha

ortikcha moliyalashtirish yuz beradi, ayrim moddalar buyicha esa, smetada ko'rsatilgan moliyalashtirishning amalga oshirilganligi hollari uchrab turadi.

4. Byudjetlar o'rtasida daromadlar va xarajatlarni taksimlashda turkumlash va yondashuvning yagonaligini ta'minlash.

5. Maxalliy boshkaruv organlarining kimmatli kigozlarin chikarish va sotishning samarali tizimini vujudga keltirish

6. Byudjetdan ajratilayotgan mabla\lar sarfining nazoratini kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekistonda byudjet tizimi bozor munosabatlariga mos ravishda rivojlanib bormoqda, shuningdek iqtisodiyotning rivojlanishida byudjet tizimining roli va mamlakatning byudjet borasidagi islohotlari iqtisodiyot taraqqiyoti uchun samarali natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston"- 2012 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.- T.: "Norma", 2013 y.-416 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi.- T.: "Norma", 2013 y.- 96 b
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 y. 29 avgust.
5. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1993 y. 2 sentabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1024-sonli Qarori (2008 yil 29 dekabr).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1245-sonli Qarori (2009 yil 12 dekabr).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1449-sonli Qarori (2010 yil 24 dekabr).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2099-sonli Qarori (2013 yil 25 dekabr).
12. Karimov I.A. Ijobiy ishlarimizni oxiriga etkazaylik. -T.: "O'zbekiston", 1994. 32 b.

13. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezonlari bo'lsin. -T.: O'zbekiston, 1994. 32 b.
14. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. -T.: "O'zbekiston", 1998. 160 b.
15. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: "O'zbekiston", 1999. 686 b.
16. Karimov I.A. Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari. -T.: "Sharq", 1998. 104 b.
17. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: "O'zbekiston", 2000. 352 b.
18. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. -T.: "O'zbekiston", 2000.
19. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - T.: "O'zbekiston", 2001. -432 b.
20. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. -T.: "O'zbekiston", 2002. -432 b.
21. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: "O'zbekiston", 2005. -528 b.
22. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. -T.: «O'zbekiston», 2001.
23. Karimov I.A. Xalqimiz farovonligini barqaror o'sishini ta'minlash - ustivor vazifa. -T.: «O'zbekiston», 2001.
24. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: «O'zbekiston», 2005.
25. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: «O'zbekiston», 2005. -528 b.
26. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009 y. 56 b.
27. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir /I.A.Karimov. - Toshkent: "O'zbekiston", 2010. 80-b.
28. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - T.: O'zbekiston. 2011. - 48 b.

29. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi:. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2012. – 36 b.
30. Karimov I. A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish T.: “O'zbekiston”, 2013 y. 64 b.
31. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi.T.: O'zbekiston,2014 y.64 b.
32. Vaxabov A.V., Srojiddinova Z.X. Gosudarstvenniy byudjet. Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2007 g. – 415 str.
33. Vahobov A.V., Malikov T.S. “Moliya” Darslik. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2010. – 804 bet.
34. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. – 526 b.
35. Vahobov A.A., Qosimova G.A., Jamolov X.N., Budjet-soliq siyosati yaxlitligi.O'quv qo'llanma. - T., «Moliya-iqtisod». 2004. 296 b.
36. Vaxobov A., Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: Iqtisod-moliya. 2008. 316bet.
37. Vahobov A., Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. –T.: Sharq, 2003. – 400 b.
38. Jo'raev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. / Monografiya. “Fan” nashriyoti. 2004 y.
39. Jo'raev A.,Safarov G'. Soliq nazariyasi -T.:TMI, 2008. -210 b.
40. Jo'raev A., Amanov A., Usmonova M. “Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun bitiruv malakaviy ishni bajarish yuzasidan uslubiy qo'llanma. TMI, “IQTISOD MOLIYA”, 2007 yil. -84 b.
41. Kovaleva V.V. «Finansi», - M.: izd. Prospekt, 2008 g.640 str
42. Malikov T.S., Haydarov N.H. “Davlat budjeti”. O'quv qo'llanma. “IQTISOD-MOLIYA” - Toshkent. TMI. 2007 y.
43. Malikov T.S., Haydarov N.H. “Budjet daromadlari va xarajatlari”. O'quv qo'llanma. “IQTISOD-MOLIYA” - Toshkent. TMI. 2007 y.

Internet saytlari:

- 44. <http://www.gov.uz> (O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali)
- 45. <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi web sayti)
- 46. <http://www.soliq.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasining web sayti)
- 47. <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasining Statistika Davlat Qo'mitasi web sayti)
- 48. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi sayti)